

OILAVIY TADBIRKORLIKNING TASHKILY IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li

SamISI "Real iqtisodiyot" kafedrası stajyor-assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy iqtisodiy mohiyatining nazariy asoslari, oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha muallif tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan va ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, oilaviy tadbirkorlik, tashkiliy-iqtisodiy asoslar, mexanizm.

IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL ECONOMIC BASIS OF FAMILY BUSINESS

Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li

Intern-assistant of department of "Real economy" SamIES

Abstract. In this article, the theoretical foundations of the organizational economic essence of family business in our country today, the author's opinions on improving the organizational economic foundations of family business are given, and scientific and practical suggestions and recommendations are developed.

Key words: economy, family business, organizational and economic foundations, mechanism.

O'zbekistonda tadbirkorlik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mujassamlashgan, yaqqol namoyon bo'ladigan hamda tez rivojlanib borayotgan va harakatchan sohasiga aylanib bormoqda. Mamlakatda bozor munosabatlarining shakllanishi va iqtisodiy taraqqiyotida uning o'rnini va roli tobora sezilarli tus olib bormoqda.

Tadbirkorlik ideologi hisoblangan XX asr buyuk iqtisodchisi Yozef Shumpeter (1883-1950-yillar): “Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo’lmagan joyda juda his qilish mumkin”, deb ta’kidlab o’tgan. Tadbirkorlikka oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar XVIII asr buyuk allomalari R.Kantil’on, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit, J.B.Sey va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Demak, “tadbirkor”, “tadbirkorlik” tushunchalarining paydo bo’lishi shu davrga to’g’ri keladi. Keyinchalik bunday tadqiqotlar kengayib, alohida ilmiy yo’nalish tusini olgan, ularning natijalarini amaliyotda qo’llash esa iqtisodiyotga samarali ta’sirini namoyon qila boshlagan. Shunday natijalardan biri “tadbirkorlik” tushunchasining shakllanishi va mazmun-mohiyatining aniqlanib, boyitilib borishi hisoblanadi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng tadbirkorlik rasman tan olindi va uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyati ham, uni ilmiy-tadqiqot qilish ham, o’qitish ham jiddiy jonlanib ketdi. Bunday o’zgarishlar tadbirkorlikni keng miqyosda ilmiy-amaliy o’zlashtirish, o’qitish, targ’ibot qilish zaruriyatini tug’dirdi. Natijada respublikadagi ko’pgina oliy o’quv yurtlari va kollejarida tadbirkorlik asoslarini o’qitish yo’lga qo’yildi.

Qolaversa, bugungi kunda tadbirkorlik sohasini jadallashtirishda oilaviy tadbirkorlikni takomillashtirish, uning yangi imkoniyatlarini tashkil qilish borasida ko’plab ishlar olib borilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ham bugungi kunda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo’yicha Qaror va Farmonlari qabul qilinmoqda. Jumladan, 2021 yil 27 martdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-5041-sonli Qarorida ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi dasturlar qabul qilish bo’yicha vazifalar berilgan.

Real amaliyotda muayyan tadbirkorlik loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

1) Eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatining imkoniyatlari va sharoitlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi va bu tadqiqotlar mobaynida shu mintaqa yoki mamlakat uchun investitsiyalarni joylashtirishning eng samarali yo'nalishlari aniqlanadi. Bunday tadqiqotlar hukumat organlari yoki yirik tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday tadqiqotlar natijalari iqtisodiyotning rivojlanishi uchun birlamchi, ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyot sohaslarini yoki mamlakatning yirik mintaqalarini o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishiab chiqishda namoyon bo'ladi.

2) Kapitallarni investitsiya qilish imkoniyatlari va investitsion loyihalar samaradorligi bir qator omillarni tahlil qilish tufayli ta'minlanadi. Bunday omillar jumlasiga tabiiy resurslarni, qishloq xo'jaligining mavjud tuzilmasini, u yoki bu tovarlar guruhiga talabni, import qilinayotgan tovarlar assortimentini, mamlakatdagi umumiy investitsion iqlimni huquqiy tomondan o'rganish, sanoat siyosatini, eksport imkoniyatlarni o'rganish kabilar kiradi. Umumiy imkoniyatlarni tadqiq etishni, kapital qo'yish imkoniyatlarini, istiqbolli bo'lgan bozorlarni, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarni o'rganishni ham qamrab oladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holdagina muayyan investitsion loyihani amalga oshirishga qiziqayotgan investorlarga loyihani amalga oshirish imkoniyatlari to'g'risida biror bir fikr bildirish mumkin. Muayyan loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini tadqiq etish umumiy shart-sharoitlardan tashqari, ishiab chiqarish sharoitlari va muayyan mahsulotni sotish tahlilini ham nazarda tutadi.

3) Muayyan tadqiqot g'oyasini texnik-iqtisodiy asoslashning maqsadi loyihani amalga oshirishda mavjud muqobil variantlar ichidan eng optimalini tanlash va qabul qilishdir. Investitsiyalash bo'yicha yakuniy baholash, qaror qabul qilish bir qator tadqiqotlarni o'z ichiga oladi: investitsion imkoniyatlarni aniqlash, loyihani TIA, investitsiyalash bo'yicha yakuniy baho va qaror qabul qilish.

4) Investitsiya loyihasi haqidagi barcha ma'lumotlar, loyihaning amalga oshirish imkoniyatlari, rentabelligi, tadbirkorlik rejasida ifodalanadi va tadbirkorlik loyihasini to'liq analitik, texnik, yakuniy ma'lumotlarini ifodalovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

5) Yanada kengroq ma'noda TIA bu - tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun har qanday loyihalarni ishlab chiqishda yoki tovar (xizmat) larni sotishni tubdan o'zgartirishda zarur hisoblanadi. O'z faoliyat strategiyasiga hamda boshqarishni tashkil etishga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishni, texnologiyalarni yangilashni, mahsulot sifatini yaxshilashni, mijozlar bilan munosabatlarni o'zgartirishni, yangi bozorlarga chiqishni mo'ljallayotgan mashhur kompaniya yoki firma ham yuqoridagi omillardan kutilayotgan natijalar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Demak, TIA nafaqat yangi ish boshlayotgan tadbirkorlar uchun, balki bozorda o'z o'limi mustahkam egallagan korxonalar, u yoki bu g'oyalarni mualliflari uchun ham zarur.

Ishlab chiqarishga yangi mahsulotni joriy etish yoki yangi turdagi xizmatlar ko'rsatishni joriy qilish, mehnatni tashkil qilish bo'yicha yangi uslubni qo'llash yoki avvaldan ishlab chiqarilayotgan mahsulotga yangi texnologiyalarni qo'llash ham tadbirkorlik rejasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu sababli, ko'pincha, katta xarajatlarni qilib, oxir oqibatda kasod bo'lgandan ko'ra, shubhali g'oyalardan voz kechish samarali hisoblanadi. TIA tadbirkor faoliyatining ssenariysi sifatida tadbirkorlik loyihasini amalga oshirishning qanchalik maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Natijada yangi ish boshlayotgan tadbirkor puli, vaqti va mehnatini iqtisod qilgani holda, nisbatan optimalroq qaror qabul qiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyatdagi kabi tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishdan "ko'z yumish" samarasiz boshqaruv qarorlarini qabul qilishga va tadbirkorlik loyihasining norentabelligiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy o'rganishlar natijasida oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan va albatta, nodavlat sektori tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini izchil takomillashtirib borish kerak, degan xulosaga keldik. Shunday

qilib, oilaviy tadbirkorlikni uzoq muddatli rivojlantirish uchun quyidagi qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalanish olib borilayotgan islohotlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga asos bo‘ladi, deb o‘ylaymiz:

- oilaviy korxonalar negizida shakllanib keyinchalik MCHJ, OK, XK, fermer xo‘jaligi, QQ va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllar ko‘rinishida rivojlansa, bazaviy imtiyozlarni saqlab qolish;

- o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan oilalar uchun zarur miqdorda mablag‘ni davlat va nodavlat moliyaviy institutlaridan past foizli, imtiyozli kreditlar, shuningdek, agar innovatsion faoliyat bo‘ladigan bo‘lsa - grantlar hisobiga qoplab berish amaliyotini joriy etish;

- tovar va xizmatlar uchun turli darajadagi sifat sertifikatlari bilan bog‘liq ichki va tashqi xarajatlarni davlat va nodavlat tuzilmalari mablag‘laridan qoplab berish amaliyotini qo‘llash;

- obodonlashtirish, kommunal xizmatlar va boshqa ijtimoiy ahamiyatli xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilashda oilaviy tadbirkorlikdan foydalanish;

- tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymat saqlovchi ishlab chiqarishlar va xizmat ko‘rsatish bilan band bo‘lgan oilaviy tadbirkorlarni alohida soliq va bojxona rejimida qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida"gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbalarini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori.

3. Saidov S. O. va boshqalar. Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari. - T.: Fan, 2002.